

2022 yil 1 mart

Yaponiyaga qisqa muddatli safarlar biznes maqsadlarida, shuningdek chet ellik talabalar, stajyor-o'qituvchilar, texnik stajyor-o'qituvchilar, ishchilar va boshqalar uchun kirish cheklovlarini yengillashtirish to'g'risida,  
(koronavirusning yangi shtammiga oid)

● **2022-yil 1-martdan O'zbekiston respublikasi fuqarolarining qisqa muddatli safarlarga boruvchilarning, shu jumladan biznes maqsadlarida, shuningdek talabalar, texnik kadrlar, turli malakaga ega bo'lgan ishchilar va boshqalar uchun viza olish va Yaponiyaga borish imkoni bo'ladi.**

● **Shuningdek, sizning Yaponiyadagi Kafolat beruvchi tomoningiz shunga muvofiq barcha kerakli hujjatlarni tayyorlashni boshlashi uchun quyidagi muhim ma'lumotlarni olish uchun qabul qiluvchi tomoningizga murojaat qilishingizni iltimos qilamiz.**

1. Yangi imkoniyatlarni ochib berish safarning asosiy maqsadlari:

(1) Qisqa muddatli 90 kunlik biznes, trening, biznes muzokaralar, uchrashuvlar va hk.

(2) Chet ellik talabalar, texnik kadrlar, turli malaka toifadagi ishchilar va h.k.larning uzoq muddatli safar.

2. Vizaga ariza berish uchun talab qilinadigan hujjatlar

Iltimos, quyidagi hujjatlarni tayyorlang va elchixonaning Konsullik bo'limiga taqdim qiling. (Kerakli hujjatlarni quyidagi internet-linkidan olishingiz mumkin.):

[https://www.mofa.go.jp/mofaj/ca/fna/page23\\_001835.html](https://www.mofa.go.jp/mofaj/ca/fna/page23_001835.html)

(1) Qisqa muddatli 90 kunlik biznes, trening, biznes muzokaralar, uchrashuvlar va hk.

- Ingliz tilida to'ldirilgan viza talabnomasi (2 nusxada)
- Xorijiy pasportning asl nusxasi
- Xorijiy pasport nusxasi (faqat A4 formati)
- Ish joyidan mehnat guvohnomasi (ariza beruvchining tegishli bo'lgan korxonadan)
- Ish safariga chiqish buyrugi (ariza beruvchining tegishli bo'lgan korxonadan)
- Taklif sababini bayon etuvchi xat (qabul qiluvchi tashkilotdan - nusxasi ham mumkin)
- Kafolat xati (faqat qabul qiluvchi tashkilot safar xarajatlarini ko'targan taqdirdagina talab qilinadi) (nusxasi ham mumkin)
- Kompaniya/tashkilotning umumiy ma'lumoti (qabul qiluvchi tashkilotdan)
- Safarning to'liq jadvali (qabul qiluvchi tashkilotdan)
- Qabul qilish haqida hujjat 受付済証(Uketsukezumisyō) (Tegishli vakolatli vazirlik tomonidan beriladi - nusxasi ham mumkin)

(2) Chet ellik talabalar, texnik kadrlar, turli malaka toifadagi ishchilar va h.k.larning uzoq muddatli safar.

- Ingliz tilida to'ldirilgan viza talabnomasi (2 nusxada)
- Xorijiy pasportning asl nusxasi
- Xorijiy pasport nusxasi (faqat A4 formatda)
- Muvofiqlik sertifikatini (Certificate of Eligibility) (nusxasi ham mumkin)
- Qabul qilish sertifikatini 受付済証(Uketsukezumisyō) (tegishli vakolatli vazirlik yoki idoraga murojaat qilgan holda qabul qiluvchi tashkilot tomonidan olinadi - nusxasi ham mumkin)

(\*1) Qabul qiluvchi tashkilotlar: xorijliklarni ishga oladigan yoki taklif qiladigan kompaniyalar, maktablar, tashkilotlar va boshqalar.

(\*2) Biznes idorasi yurisdiksiyasi ostidagi vazirlik yoki agentlik: Yaponiyada qabul qiluvchi tashkilot ustidan yurisdiksiyaga ega vazirlik yoki agentlik

### 3. Qabul qilish sertifikatini 受付済証 (Uketsukezumisyō) haqida:

(1) Qabul qilish sertifikatini 受付済証(Uketsukezumisyō) qabul qiluvchi tashkilot tegishli vazirlik va idoraga kerakli hujjatlarni taqdim etganda, buning uchun ariza topshirilganda va tegishli vazirlik va idorada tekshiruvdan so'ng hech qanday muammo bo'lmaganda beriladi.

(2) Qabul qilish sertifikatini 受付済証(Uketsukezumisyō) olish uchun talab qilinadigan hujjatlar quyidagilardir |:

- Ariza formasi
- Yozma majburiyatnoma (kirgan shaxsdan va chet el fuqarosini qabul qilish uchun mas'ul shaxsdan)
- Faoliyat rejasi
- Kiruvchi shaxslarning ro'yxati
- Kiruvchi shaxslarning pasport nusxasi

○ Yaponiyaning O'zbekiston Respublikasidagi elchixonasi konsullik bo'limi

Manzil: Toshkent shahri, Yashnobod tumani, Sodiq Azimov ko'chasi, 1-28-uy

Aloqa telefoni: +998-78-1208060 (ish kunlari, soat 9:00-18:00)

Ish vaqtidan boshqa va dam olish kunlarida favqulodda telefon raqami: +998-91-162-5009

Veb-sayt: [https://www.uz.emb-japan.go.jp/itprtop\\_ia/index.html](https://www.uz.emb-japan.go.jp/itprtop_ia/index.html)

\* Yangi koronavirus haqidagi ma'lumotlarga ega maxsus internet sahifasi:

[https://www.uz.emb-japan.go.jp/itpr\\_ia/11\\_000001\\_00014.html](https://www.uz.emb-japan.go.jp/itpr_ia/11_000001_00014.html)

○ Yaponiya Tashqi ishlar vazirligi Konsullik xizmati markazi:

Aloqa telefoni: +81-3-3580-3311, ichki raqamlari: 2902, 2903

### **E'tibor bering!**

Yaponiya tomonidan tayyorlanadigan hujjatlar skaner qilingan nusxalar ko'rinishida topshirilishi mumkin, ammo ko'rib chiqish jarayonida asl hujjatlari ham talab qilinishi mumkin.

Agar barcha zarur hujjatlar to'planmagan bo'lsa, arizangiz ko'rib chiqish uchun qabul qilinmaydi.

Agar vizaga murojaat qilish shakli yoki taqdim etilgan hujjatlarda haqiqatga to'g'ri kelmaydigan ma'lumotlar mavjud bo'lsa, viza rad etiladi va rad etilgan kundan boshlab 6 oy ichida qayta murojaat qilishning ilojisi bo'lmaydi. Vizaga ariza shaklini ingliz tilida to'ldirish namunasini quyidagi Internet linkidan topishingiz mumkin:

<https://www.uz.emb-japan.go.jp/files/000398332.pdf>

Qoida tariqasida, barcha hujjatlar ma'lum ko'rsatmalardan tashqari asl nusxada taqdim etiladi.

Iltimos, ushbu paragraflarda sanab o'tilgan hujjatlarni tegishli tartibda taqdim eting:

Barcha hujjatlarni faqat A4 formatda taqdim eting.

Hujjatlarni stepler yoki qog'oz qisqichi bilan bog'lamang.

Qoida tariqasida, har bir talab qilinayotgan hujjat 1ta nusxada taqdim etiladi, viza ariza shakllari esa, - 2ta nusxada.

Qabul qilingan hujjatlar qaytarib berilmaydi.

Arizani ko'rib chiqish jarayonida boshqa qo'shimcha hujjatlar ham talab qilinishi mumkin.